



Toshkent viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-avgust dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI**
- IV. METAMA'LUMOTLAR**
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR**


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- sentyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 8 734 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 27 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 8 707 tani tashkil qildi.


2025- yilning yanvar-avgust oylarida Toshkent viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 25 668,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,6 % ga teng bo'ldi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 3 589,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 100,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 22 078,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 11,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 967,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 7,3 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
(ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- sentyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 166 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 36 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 130 tani tashkil qildi.

Toshkent viloyati bo'yicha 2025- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 34 715,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 13,2 % ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 28 244,3 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 9,3 % ga to'g'ri keldi. Toshkent viloyatining jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 81,4 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'ati Quyi Chirchiq (24,4 m.), Zangiota (10,6 m) tumanlari hamda Chirchiq (4,2 m.) shahrida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- sentyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 738 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 11 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 727 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-avgust oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 9 309,8 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 13,6 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 78,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)**IV. METAMA'LUMOTLAR**

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul:
Xizmatlar va savdo sohasi
statistikasi bo'limi

Ijrochi: M.Mirzokirov
Tel: (+99871)203-45-00
(4541)

Manzil: Toshkent shahar Mirobod
tumani Yangi Qo'yliq ko'chasi, 2-
uy